

NAVOIY RUBOIYLARI QORAQLPOQCHA TARJIMASIDA  
SO‘Z VA OHANG

**Z.G.Azilova**

*Nukus davlat pedagogika instituti,  
O‘zbek adabiyoti kafedrası  
assistent-o‘qituvchisi*

***Annotatsiya:** Maqolada Alisher Navoiy ruboiylarining qoraqalpoq tiliga tarjimalari asliyat bilan qiyosiy holda tahlil qilinadi. Ruboiy tarjimalarida vazn, ohang saqlanishi, mazmun va shakl jihatdan bir-biriga muvofiqligi, tarjima adekvatligi kabi masalalar o‘rganiladi.*

***Kalit so‘zlar:** ruboiy, vazn, she‘riy tarjima, ohang, shakl, mazmun, qofiya, radif, adekvat tarjima.*

She‘riy tarjimada unda ifodalangan mazmun, shakl, obraz, ifoda va ohangni berishda “qurilish material” bo‘lgan muqobil so‘z alohida vazifa bajaradi. Ta’kidlash joizki, she‘riy tarjimada mazmun jihatdan mos so‘zlar emas, balki ohang ham ifodalarning yaxlit tizimiga xizmat qiladi. Shu ma’noda, she‘riy asar tarjimasida asliyatga ham shaklan, ham mazmunan hamohang bo‘lishi talab qilinadi. “She‘riy asar deganda, biz, timsollar, ramzlar, tashbehtar, singari badiiy vositalar ishtirokida muayyan shoirona uslubda yaratilgan ohang va marom fonidagi ruhiy-emotsional manzarani tushunamiz. She‘riy tarjimada bir tilda bunyodga keltirilgan ana shu manzara ikkinchi tilda qayta yaratilishi lozim. Shu bois, she‘riy tarjima, nasriy tarjimadan farqli o‘laroq, shoir-tarjimonning asari – boshqa bir muallifning ijod mahsuli hisoblanadi va u tom ma’nodagi ijodiy mehnat bo‘lib, iste’dod hamda san’atkorona mahorat bilan amalga oshiriladi” [Abdulla Sh. 1:129]. Demak, tarjima qayta yaratish san’ati ekan, tarjimon bu jarayonga ijodiy yondashishi zarur. She‘riy tarjima qay darajada asliyat ruhini bera oladi, bu tarjimonning san’atkorligi, mahoratiga bog‘liq. Taniqli tarjimashunos olimlar G‘.Salomov aytganidek, “she‘riy tarjima badiiy tarjimaning oliy navi desa bo‘ladi” [G‘.Salomov 12:3].

Navoiy asarlari dunyoning bir qancha tillariga tarjima qilingan. Xususan, shoir ruboiylari L.Penkovski, N.Grebnev tomonidan rus tiliga, qoraqalpoq adabiyotining taniqli shoiri, tarjimon S.Ibragimov tomonidan qoraqalpoq tiliga tarjima qilingan. Ma’lumki, ruboiy mumtoz adabiyotda keng qo‘llanilib kelgan, to‘rt misradan iborat ishqi, axloqiy, diniy, siyosiy-falsafiy mavzularda yoziladigan kichik lirik janrlardan biri hisoblanadi. Navoiy “Mezon ul-avzon” asarida ruboiyga quyidagicha ta’rif beradi: “Ruboiy vaznikim, oni “dubaytiy” ham “tarona” ham derlar, hazaj bahrining “axram” va “axrab”idin istixroj qilibturlar va ul vaznedur asru xushoyanda va vaznedur bag‘oyat raboyanda...” [Navoiy. 6:16].

Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotiga 133 ta ruboiysi kiritilgan. Biz quyida mazkur ruboiylarning S.Ibragimov qoraqalpoq tiliga qilgan tarjimalariga to‘xtalamiz:

Asliyatda:

Bir gul g‘amidin dedim qo‘yay bag‘rima dog‘,  
Bergaymu debon atri dimog‘img‘a farog‘,  
Bargin chu mulavvas ayladi bum ila zog‘,  
Emdi oni islamoqqa yuz hayf dimog‘ [8:88].

Tarjimada:

Bir gúldiń dártinde ahiw-zar edim,  
Átiri kónlimdi bezer dep edim,  
Shaqasiman quzǵın ushqanın kórip,  
Endi oni iskewge ar ettim [7:22].

Avvalo, asliyatda berilgan ba’zi so‘zlar ma’nosi izohlashga ehtiyoj seziladi. Xususan, “farog‘-rohat; xursandlik [Lug‘at. 4:326], mulavvas ayla – iflos, bulg‘anch [Lug‘at. 3:345], bum – boyqush, hayf – esiz, attang, afsus” degan ma’nolarni bildiradi. **Ruboiy mazmuni:** bir gul g‘amidin bag‘rimga dog‘ qo‘yay dedim, atri dimog‘imga xursandchilik bergaym-u deb, bargini boyqush bilan zog‘ iflos qildi, endi uni iskamoqqa dimog‘im yuz hayf qiladi. Bu ruboiyning ko‘rinib turgan ma’nosi bo‘lsa, aslida ruboiyni quyidagicha tushunish mumkin: Oshiq gul kabi chiroyli ma’shuqaga ko‘ngil qo‘yib, u bilan suhbat qurishni istaydi, lekin boyqush bilan zog‘ga o‘xshash kimsalar “gul bargin iflos qilganligi” sabab, oshiq u bilan ko‘rishishni umuman istamaydi, ya’ni u gulni isকাশni dimog‘iga yuz hayf biladi. Asliyatdagi mazmun tarjimada aks etgan. “Bargin chu mulavvas ayladi bum ila zog‘” misrasi “Shaqasiman quzǵın ushqanın kórip” deya mos so‘zlar tanlangan. Biroq, tarjimada hamma ish osongina ko‘chavermaydi. Asliyatda to‘rt misra ham qofiyalangan – dog‘, farog‘, zog‘, dimog‘ – taranoyi ruboiy bo‘lsa, tarjimada asl nusxadagidek to‘rt misra qofiyalanmay, xosa ruboiy qilib o‘g‘irilgan: ahiw-zar, bezer, ar. Asliyatda qofiya misralar oxirida kelib, asosiy mazmun, urg‘u shu so‘zlarda berilgan, tarjimada esa misra qofiyadosh so‘zlar o‘rtasida kelgan.

“Badiiy tarjimalarning asosiy foydasi shundaki – degan edi V.G.Belinskiy – ...ular chinakam nafosatdan bahra berishdan tashqari, estetik hissiyotni o‘stirish, did hosil qilish va nafosat to‘g‘risida to‘g‘ri tushunchalarning tarqalishiga xizmat qiladi. [Salomov G‘. 11:20] Shunday ekan, tarjimon ruboiy tarjimasida qofiya o‘rniga, tartibiga e’tibor berishi lozim. Qolaversa, ruboiy janriga qo‘yiladagan talablardan biri uning aruz vaznida yozilishidir. Asliyatda ruboiyning birinchi, uchinchi va to‘rtinchi misralari axrab shajarasining hazaji musammani axrabi maqbuzi makfufi axtam, ikkinchisi hazaji musammani axrabi makfufi axtam vaznida yozilgan:

Bir gul g‘amidin dedim qo‘yay bag‘rima dog‘,  
– – V / V – V – / V – – V / V ~

Bergaymu debon atri dimog‘img‘a farog‘,

– – V/ V – – V/ V – – V/ V~

Bargin chu mulavvas ayladi bum ila zog‘,

– – V/ V – V –/ V – – V/ V~

Emdi oni islamoqqa yuz hayf dimog‘.

– – V/ V – V –/ V – – V/ V ~

Yuqorida keltirilgan ruboiyining tarjimasini aruz vazniga muvofiq kelmaydi:

Bir gúldín dártinde ahiw-zar edim,

– – – – V – – V –

Bunday holat quyida keltirilgan tarjimalarga ham xos. Navoiy ruboiylari taronayi ruboiy shaklida bitilgan, tarjimalarda esa xosa ruboiy tarzida tarjima kelgan.

Asliyatda:

Yuz mehnat-u g‘am ko‘ngluma yetkurdi firoq,

Joning‘a balov-u dard o‘qin urdi firoq,

Jismimni fano o‘tig‘a kuydurdi firoq,

Chun kuydi, kulini ko‘kka sovurdi firoq.

“Fano” so‘zi “baqosizlik, yo‘q bo‘lish; o‘zlikdan kechish, o‘zini unutish, tasavvuf yo‘liga kirish; o‘lim ajal” [Lug‘at. 2:651] kabi ma‘nolarni bildiradi. Ruboiyda ayriliqdan qiynalgan oshiq holati aks ettirilgan. Tasavvufiy ma‘nosi esa haqqa yetishish yo‘lida solih o‘zligidan voz kechib, Olloh bilan birlashib ketishi anglashiladi.

Tarjimada:

Kónlime júz mánet jetkerdi hijran,

Janima dárt ógín qadadı hijran,

Jandırdı jismimdi pániy otına,

Kúydi – kúlin kókke suwırdı hijran.

“Mánet – miynet” [Lug‘at. 10:153]. Misralar mazmunidan anglashiladiki, ruboiy mazmunan asliyatga aynan mos qilib tarjimalangan. Tarjimada misralar asliyatdagi firoq radifiga mos bo‘lgan “hijron” radifi bilan yakunlanadi. Qofiyalanishi: aslida – yetkurdi, urdi, kuydurdi, sovurdi; tarjimada – jetkerdi, qadadı, suwırdı.

Qiyoslang:

Johilki, hasad bo‘lg‘ay aning jahlig‘a zam,

Nur el ko‘zidin anglasa o‘z ko‘zida kam.  
Ko‘zlarni olishmoqqa chekib tig‘i sitam,  
El ko‘zini ham o‘ygayu o‘z ko‘zini ham.

Tarjimada:

Hásád tolı aqıl oyı jáhildiń  
Óz kózinde nurdı kem kórse elden,  
Endi bul kózlerdi almastırıwǵa –  
Kózin oyar óziniń de eldiń de.

“Zam-qo‘shish, jamlash” [Lug‘at. 2:613] degani. Johil odam el ko‘zidagi nurdan o‘z ko‘zidagi nur kamligini anglasa, uning jahliga hasad qo‘shilib, zulm xanjari bilan ko‘zlarini almashtirmoqchi bo‘lib el ko‘zini ham o‘z ko‘zini ham o‘yib oladi. Ya’ni, ruboiyda boshqalar ko‘zidagi nurni ko‘ra olmaydigan hasadgo‘y, ichi qora kimsa anglashiladi. Qofiyalanishi: zam, kam, sitam, ham. Tarjimada mazmun to‘liq saqlangan. Asliyatda to‘rt misra ham qofiyalangan, lekin tarjimada bu aks etmagan: jáhildiń – elden – eldiń so‘zlari o‘zaro qofiyadosh emas.

Ma’lumki, tarjimashunoslik ilmida adekvat, erkin, ijodiy, so‘zma-so‘z, hijjaviy, aniq, mualliflashtirilgan, qayta tarjima singari turlari mavjud. Adekvat tarjima har jihatdan asliyatga mos, ham mazmunan, ham shaklan asl nusxaga muvofiq keladigan turdir. Mazkur ruboiy tarjimasini shakl jihatdan adekvat deya olmaymiz. To‘g‘ri, tarjimondan mumtoz janrning barcha unsurlarini tengma-teng, aynan takrorlashni qat’iy talab qilib bo‘lmaydi. Buning iloji ham yo‘q. Bunday paytda mukammal she’riy tarjimaning muhim mezoni deb, qofiyadoshlik, ma’noning aniqligi, radifning mavjudligi, ohang va so‘zning saqlanishini e’tirof etish mumkin.

Asliyatda:

Furqat sahari g‘amg‘a yo‘luqturdi meni,  
Hijron kuni yuz balog‘a topshurdi meni.  
G‘am shomi o‘lum holig‘a yetkurdi meni,  
Tong otqucha uyqusizlig‘ o‘lturdi meni.

Tarjimada:

Ayralıq sáhári gámǵa shattı meni,  
Hijran kúni basıma júz bále saldı meniń,  
Gám túni ólim halına jetkerdi meni,  
Tań atqansha uyqısızlıq óltirdi meni.

Bu o‘rinda ham asliyatdagi ma’no-mazmun tarjimada to‘liq ifodalangan. Biroq, tarjimada birinchi va ikkinchi misra qofiyalanmay qolgan: shattı-saldı, uchinchi va to‘rtinchi misralar qofiyalangan: jetkerdi, óltirdi. Radif hisoblangan meni so‘zi ikkinchi misrada o‘zgartirilgan. Bizningcha, “shatti” fe’lining o‘rniga “joliqtirdi”

fe’li qo‘llanilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi. Sababi, asliyatdagi “yo‘luqturdi” so‘ziga “joliqtirdi” fe’li ekvivalent bo‘la oladi. Bizga ma’lumki, barmoq vaznida bo‘g‘inlar soni teng kelishi lozim. Tarjimada misralardagi bo‘g‘inlar soni ham teng emas: birinchi misra – 12, ikkinchisi – 14, uchinchi va to‘rtinchi misralar – 13 bo‘g‘indan iborat. Asliyatda esa har bir misra 13 bo‘g‘indan iborat. Tarjimada birinchi misrada “furqat” so‘zini “ayraliq” deb tarjima qilmasdan o‘zini olsak, “joliqtirdi” so‘zini qo‘llasak, bo‘g‘inlar soni tenglashadi:

Fur-qat sá-há-ri gám-ğa jo-lıq-tır-di me-ni

Ikkinchi misrada “basima” so‘zini qo‘shmasdan tarjima qilinsa, “saldi” so‘zi o‘rniga “tapsirdi” so‘zidan foydalanilsa, meniñ so‘zi ham asliyatdagidek “meni” tarzida qoldirilsa, bo‘g‘inlar soni tenglashib, qofiyadoshlik ta’minlanishiga erishilgan bo‘lardi, shuningdek, radiflar takrori ham buzilmaydi:

Hij-ran kú-ni júz bá-le-ge tap-sir-di me-ni.

Asliyatda:

El qochsa birovdin el yomoni bil oni,  
Ahvolida idbor nishoni bil oni.  
Fe’l ichra ulus baloyi joni bil oni,  
Olam elining yomon yomoni bil oni.

“Idbor – baxtsizlik, tushkunlik, ish orqaga ketishlik” [Lug‘at. 3:13]” ma’nosini bildiradi. El birovdan qochsa, uni el yamoni deb bil. Chunki, ko‘pchilik ya’ni, “el” birovni yomon der ekan, u tasodifiy bo‘lmaydi. Ular birovdan o‘zlarini olib qochsalar, u elning yomoni bo‘ladi, bunga sabab o‘sha odamning fe’lidir. Bunday kimsalarning yomonligi faqat o‘zi uchun ziyon yetkazmaydi, balki boshqalar uchun ham zararlidir. Shoir uni “ulus baloyi joni”, ya’ni “elning boshiga bitgan balo” deya tasvirlagan. Oxirgi misralarda esa tugal xulosa beriladi: Bunday odamni o‘zining, o‘zi mansub bo‘lgan elninggina emas, balki butun dunyoning yomoni deb bil degan mazmun tushuniladi. Shoir yomon so‘zini ikki marta qo‘llab, fikrini yanada kuchaytirgan.

Tarjimada:

El kimnen júz bursa – el jamanı bil,  
Qara jollardıń da qara jolı bil,  
Pıgılı buzıq bil ulıs ishinde,  
Álem eli jamanınıń jamanı bil.

Tarjima mazmun jihatidan asliyatga mos. Ammo asliyatda “bil oni” so‘zlari radif sifatida qo‘llanilib, shoir aytmoqchi bo‘lgan fikrning ta’sirchanligini orttirgan. Tarjimada esa “oni” so‘zi tushirilgan. Natijada, ruboiy asliyatdagidek jaranglamaydi va bu o‘z navbatida ta’sirchanlikni pasaytirgandek taassurot tug‘diradi. Tarjimashunos olim G‘.Salomov o‘z tadqiqotida badiiy tarjimani prinsipi haqida

V.G.Belinskiydan shunday iqtibos keltiradi: “Badiiy tarjimaning bitta qoidasi bor: bu – tarjima qilinayotgan asarning ruhini berishdan iborat, buning uchun esa asarni, agar avtor basharti rus bo‘lganida o‘zi ham shunday yozgan bo‘lar edi, degan maqomda tarjima qilish kerak. Badiiy asarlarni bunday o‘girish uchun tug‘ma san’atkor bo‘lish darkor” [Salomov G‘. 11:21]. To‘g‘ri, badiiy tarjima jarayonida matnni aniq anglash va unga muqobil so‘zlarni topa olish, shuningdek, asar ritmik o‘lchovlarni saqlash, nihoyatda murakkab masala. Qolaversa, bu o‘rinda mentalitet va e‘tiqod masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Asliyatda:

Uch fe‘l erur yaxshig‘a qotil oxir,  
Qotilliq aro zahri halohil oxir:  
Buxl angla biriniyu, havo bil oxir,  
Qil u la‘bni alarg‘a doxil oxir.

Manbalarda berilishicha, Halohil – o‘tkir, ta’sirchan, halok etuvchi, o‘ldiruvchi; [Lug‘at. 5:145]; “Buxl – baxillik, xasislik, qurmsoqlik [Lug‘at. 2:341]; La‘b – o‘yin, tasalli, ko‘ngil ochish, raqs; 2. hiyla nayrang [Lug‘at. 3:169]; doxil-daxldor, tegishli [Lug‘at. 2:506] ma’nosini beradi. Demak, ruboiy mazmunidan: uch fe‘l yaxshiga oxiri qotildek o‘ldiruvchi zahar kabi bo‘ladi: biri baxillik, biri kibr-havo va uchinchisini o‘yin-kulgu yoki hiyla nayrang deb bil” degan ma’no anglashiladi.

Tarjimada:

Úsh peyil adamnín jolín bekleydi,  
Boy berseń – asíña qattín záhárdi,  
Baqıllıq hám nápsi – bular ekewi,  
Menmenlik boladı bunín úshligi.

Tarjimada: uch fe‘l odamning yo‘liga to‘g‘anoq bo‘ladi, baxillik, nafsga berilish, manmanlik uchalasi odamda jamlansa, oshingni zaharga aylantiradi degan mazmun mavjud. Demak, tarjimada asliyatdagi ma’no mujassam. E’tibor bersak, asliyatda kishidagi uchinchi fe‘l – “la‘b” deb ko‘rsatilgan. Tarjimada “nápsi” deb o‘girilgan. “Nápsi – qulqín, máp” degani. Bu so‘zlarining ma’nosi bir-biriga mos emasdek. Ehtimol, tarjimon bu yerda nafs ham kishi boshiga yetishi mumkinligini hisobga olgandir. Zero, la‘b so‘zining “o‘yin, tasalli, ko‘ngil ochish, raqs” degan ma’nolari ham nafs so‘ziga yaqin tushunchalardir.

Quyidagi ruboiy tarjimasida esa asliyatdagi, radif ham, qofiya ham saqlangan, ma’no-mazmun ham to‘liq mujassam.

Munglug‘ boshim ostidagi toshimnimu dey?  
Tosh ustidagi g‘arib boshimnimu dey?  
Hasrat suyidin ko‘zumda yoshimnimu dey?

O‘lmakdin sa’broq maoshimnimu dey?

Tarjimada:

Muñli basima dastangan tasti ne deyin?

Tas üstinde garip basımdı ne deyin?

Hásiret otında kózde jasımdı ne deyin?

Ólgennen múshkil ómirimdi ne deyin?

Quyidagi ruboiy tarjimasida esa qofiyadoshlik ta’minlanmaydi: qurdım, kúniñ, jannan, bárinen, radif ham mavjud emas. Asliyatda qofiyalar: yomondin, makondin, jondin, ondin. Ammo bu bilan tarjima muvaffaqiyatsiz degani emas, zero unda ma’no-mazmun, g’oya ifodalangan:

Dunyo sari hirs har yomondin ortuq,

Tark etmek oni kavnu makondin ortuq.

Suvsizg’a suv shavqi bo’lsa jondin ortuq,

Bil siflarg’a mol shavqi ondin ortuq.

Tarjimada:

Dúnya nápsi – barlıq qurdımnan qurdım,

Baxıt – bul báleden qutılğan kúniñ,

Suwsızğa bir jutım suw artıq jannan,

Nákasqa bir teñge üstin bárinen.

S.Ibragimov o‘z kitobiga Navoiyning 20 ruboiysi tarjimasini kiritgan. Biz hozircha shu 8 ta ruboiy tarjimasiga qisman to‘xtaldik. Ta’kidlash lozimki, tarjimon mas’uliyatli ishga qo‘l urib, ikki xalq madaniyatini bog‘lashdek muhim vazifaga kirishgan. Zero, Pushkin bejizga tarjimonlarni “ma’rifat choparlari” deb atamagan. P’er Fransua Kaye: “tarjimani nikoh yo‘li bilan amalga oshiriladigan ittifoqqa, she’riyat tarjimasini esa muhabbatga asoslangan nikohga” [P’er Fransua Kaye. 9:6] qiyos etgan edi. Har bir xalqda o‘z qoidalari bo‘lganidek, tarjimashunoslikda ham har ikki tomonning mezonlari mavjud. Bir so‘z bilan aytganda, tarjima ikki madaniyatni bir-biriga yaqinlashtiradi. Shu asnoda, adabiyotlar boyib, rivojlanib boradi. Jahon sivilizatsiyasida ham tarjima adabiyotining roli beqiyos kattadir. Shunday ekan, S.Ibragimov tarjimon sifatida adabiyotini yangi she’riy tarjimalar bilan boyitdi. Hozirgi qoraqalpoq kitobxonlarini Navoiy ruboiylaridan o‘z ona tilida bahramand qilmoqqa erishdi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulla Sher. Sharq yulduzi №3 2014. 129-bet.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I том. – Т.: Фан нашриёти, 1984. – Б. 624.
3. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. II том. – Т.: Фан нашриёти, 1983. – Б. 644.

4. Алишер Навоий асарлари 2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. III том. – Т.: Фан нашриёти, 1984. – Б. 624.
5. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. IV том. – Т.: Фан нашриёти, 1985. – Б. 636.
6. Alisher Navoiy Mezon ul-avzon. www. ziyouz.com kutubxonasi.
7. Alisher Navoiy. G‘azzeller. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2020. – Б. 80.
8. Navoiy Alisher. Qit’alar, fardlar, ruboiylar, tuyuqlar. – Т.: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968. – Б. 100.
9. P’er Fransua Kaye Tarjima san’ati. Т.: Adabiyot va san’at nashriyoti. 1980.
10. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. 5 том. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2023. – Б. 399.
11. Salomov G‘. Til va tarjima. – Т.: Fan nashriyoti, 1966. 385 bet.
12. Salomov G‘., Komilov N. Do‘stlik ko‘priklari: (Poeziya va tarjima). Т.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1979. – 224 b.